



RESPUBLIKAMIZDA YOQILG'I MAHSULOTLARINI AKSIZ SOLIG'IGA TORTISH AMALIYOTI

PhD, dots. Djalilov Rahmonkul
Qarshi davlat texnika universiteti
ORCID: 0009-0002-1029-1027
djalilovraxmonqul@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq tizimida soliq sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning aksiz solig'ini hisobga olish mexanizmlariga ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, soliq nazorati, soliq ma'muriyatchiligi, bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, neft mahsulotlari, benzin.

ПРАКТИКА ОБЛОЖЕНИЯ АКЦИЗНЫМ НАЛОГОМ ТОПЛИВНОЙ ПРОДУКЦИИ В НАШЕЙ РЕСПУБЛИКЕ

PhD, доц. Джалилов Рахмонкул
Каршинский государственный технический университет

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние налоговой политики на механизмы учета акцизного налога в налоговой системе.

Ключевые слова: налоговая система, налоговый контроль, налоговое администрирование, косвенные налоги, налог на добавленную стоимость, акцизный налог, нефтепродукты, бензин.

THE PRACTICE OF EXCISE TAXATION OF FUEL PRODUCTS IN OUR REPUBLIC

PhD, assoc. prof. Djalilov Rakhmonkul
Karshi State Technical University

Abstract. This article examines the impact of the tax policy implemented in the tax system on the mechanisms for accounting for excise tax.

Keywords: tax system, tax control, tax administration, indirect taxes, value-added tax, excise tax, petroleum products, gasoline.

Kirish.

Zamonaviy sharoitda soliq tizimida aksiz solig'ini takomillashtirishning xususiyatlari va usullarini o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va davlat iqtisodiy siyosati faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u milliy iqtisodiyot moliyaviy resurslarining muhim qismi oqimini ta'minlaydi. Umuman olganda, aksiz solig'i tizimi murakkab bo'lib, uni davlat byudjetida hisoblash vazifalari bilan tarixiy aloqalarni shakllantiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, aksiz solig'i byudjetini to'l dirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim soliq hisoblanadi.

Samarali va barqaror soliq tizimini shakllantirish, byudjetlarning mutanosib emasligi va taqchilikning kuchayishi sharoitida aksiz solig'i tizimidagi muammolarni va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini o'rganishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda ushbu masalalarni ko'rib chiqish aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati, stavkalari chegaralanishi va ularni hisoblash tartibi, shuningdek, davlat byudjetini shakllantirish va to'ldirishda ularni asosan tarkibida alkogolli mahsulotlar va neft mahsulotlari uchun to'lashda nazarda tutilgan bo'lib, bu ko'rib chiqishda qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Semenovanning (2023) yozishicha: "Ko'pgina mamlakatlarda aksiz solig'i federal va mahalliy byudjetga tomonidan undiriladi. Ba'zi mamlakatlarda federal hukumat stavkalarni belgilash va soliqlarni yig'ish uchun javobgardir, boshqalarida esa mahalliy hukumatlar stavkalarni belgilash va soliqlarni yig'ish ustidan ko'proq nazoratga ega bo'lishi mumkin".

Gusaim va Tararishkinalarning (n.d.) qayd etishicha: "Xitoyda tamaki, alkogolli ichimliklar, avtomobillar, benzin, dizel yoqilg'isi, neft mahsulotlari va boshqalarni o'z ichiga olgan bir qator tovarlardan aksiz solig'i o'ndiriladi. Tamaki solig'i mahsulotning chakana narxning 56% ni tashkil qiladi, va spirtli ichimliklar solig'i ichimlik turiga qarab 10% dan 45% gacha. Avtomobil solig'i dvigatel kuchiga bog'liq va avtomobil narxining 40% gacha bo'lishi mumkin".

AQShda aksiz solig'i federal, shtat va mahalliy hukumatlar tomonidan olinishi mumkin va olinadi va Qo'shma Shtatlar bo'ylab bir xil emas. Ba'zi tovarlar, masalan, benzin, dizel yoqilg'isi, alkogol va tamaki, bir vaqtning o'zida bir nechta hukumatlar tomonidan soliqqa tortiladi. AQShda "2025-yil 30-iyun kuni Qo'shma Shtatlar 1000 sahifadan ortiq bo'lgan yirik "One Big Beautiful Bill" («Bir katta go'zal qonun») qabul qildi. Boshqa narsalar qatorida, u jismoniy shaxslar tomonidan xalqaro pul o'tkazmalari uchun yangi aksiz solig'ini joriy qiluvchi 112104-bo'limni o'z ichiga oladi" (campiogroup, 2025).

Bundan tashqari, Borovkoning (2012) fikricha, "hozirgi zamon soliq siyosatining istiqbolli yo'nalishi va kontseptual aksiz solig'iga tortish amaliyotining ijtimoiy yo'naltirilgan modelini shakllantirish va uning samarali rivojlanishini ta'minlashdir".

Tegetaeva (2016) o'zining ilmiy izlanishlarida, "aksiz solig'i egri soliq tarkibiga kirsada, hozirda uning asosiy ahamiyati aholi ijtimoiy iste'molining holati va istiqbolini baholash mezoni ekanligidadir".

Juralov (2024) o'zining ilmiy izlanishlari natijasida quyidagi xulosaga kelgan: "Aksiz solig'ini hisoblashva tahlil qilishning nazariy asoslari ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va xulq-atvorning kengroq o'lchovlarini qamrab olish uchun oddiy moliyaviy mulohazalar doirasidan tashqariga chiqadi. Ushbu soliqlarning murakkabligi daromadlarni ishlab chiqarishni siyosat maqsadlariva bozor ta'siri bilan muvozanatlashtiradigan nozik yondashuvni talab qiladi".

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, mantiqiylik va guruhlash usullaridan foydalanildi. Aksiz solig'i bo'yicha turli iqtisodchi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar o'rganilgan. 2026-yilda respublikamizda yoqilg'i moylash materiallariga aksiz solig'i va ular bo'yicha tovar aylanmasi, «1C-Buxgalteriya» dasturida soliq hisobini yuritish borasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Aksiz solig'i - bu iqtisodiyotga va jamiyat faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan muayyan tovarlar va xizmatlarni sotish yoki ishlab chiqarish uchun olinadigan soliq. Odatda, bu soliqlar ishlab chiqarish, sotish yoki import qilish vaqtida olinadi.

Aksiz solig'i ko'pincha tamaki, alkogol, benzin kabi mahsulotlarga haddan tashqari foydalanishning oldini olish va oldini olish yoki atrof-muhit ifloslanishini bartaraf etish uchun qo'yiladi. Keyinchalik bu turdagi soliqlar davlat dasturlarini moliyalashtirish, shuningdek, sog'liqni saqlash, ta'lim va infratuzilma kabi muhim xizmatlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari

№	Tovarlar nomi	Soliq stavkalari	
		2026-yil 1-yanvardan	2026-yil 1-apreldan
1.	Neft mahsulotlari:		
	AI-80 va undan yuqori benzin	375 000 soʻm/tonna	402 000 soʻm/tonna
	AI-91 va undan yuqori benzin	335 000 soʻm/tonna	360 000 soʻm/tonna
	aviakerosin (sintetikdan tashqari)	300 000 soʻm/tonna	321 000 soʻm/tonna
	dizel yoqilgʻisi (sintetikdan tashqari)	360 000 soʻm/tonna	385 000 soʻm/tonna
	EKO dizel yoqilgʻisi (sintetikdan tashqari)	325 000 soʻm/tonna	348 000 soʻm/tonna
	dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi	510 000 soʻm/tonna	546 000 soʻm/tonna
2.	Polietilen granulalar	10%	
3.	Tabiiy gaz	12%	
4.	Yakuniy isteʼmolchiga realizatsiya qilinadigan:		
	AI-80 va undan yuqori benzin		
	1 litr uchun	525 soʻm	562 soʻm
	1 tonna uchun	700 000 soʻm	750 000 soʻm
	AI-91 va undan yuqori benzin		
	1 litr uchun	470 soʻm	505 soʻm
	1 tonna uchun	621 000 soʻm	665 000 soʻm
	dizel yoqilgʻisi		
	1 litr uchun	525 soʻm	562 soʻm
	1 tonna uchun	635 000 soʻm	680 000 soʻm
	suyultirilgan gaz		
	1 litr uchun	525 soʻm	562 soʻm
	1 tonna uchun	1 000 000 soʻm	1 070 000 soʻm
	siqilgan gaz		
	1 kub metr uchun	750 soʻm	805 soʻm

Aksiz osti tovarlar uchun aksiz solig'i stavkasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 289¹, 289², 289³-moddalariga[7] bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2026 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1108-son qonuni[8] bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

1-Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, respublikamizda 2026-yil uchun neft mahsulotlari nisbatan aksiz solig'i stavkalari barcha neft mahsulotlari bo'yicha soliq stavkalari o'rtacha 7 % atrofida oshirilgan. Bu esa o'z navbatida inflyatsiyani hisobga olgan holda byudjet tushumlarini barqarorlashtirish va energiya resurslaridan tejamkor foydalanishni rag'batlantirishga qaratilganligini sezish mumkin. Tabiiy gazga nisbatan aksiz solig'i stavkasi

yuqoriroq (12 %) stavkada qo'llanilishi energiya resurslarini samarali ishlatish siyosatini ko'rsatadi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2026-yil uchun neft mahsulotlari nisbatan aksiz solig'i stavkalari miqdorining o'zgarishi holati. tonna hisobida

Mahsulot	2026-yil 1-yanvar (so'm)	2026-yil 1-aprel (so'm)	O'sish (so'm)	O'sish (%)
AI-80 va undan yuqori benzin	375 000	402 000	27 000	7,20%
AI-91 va undan yuqori benzin	335 000	360 000	25 000	7,50%
Avia kerosin	300 000	321 000	21 000	7,00%
Dizel yoqilg'isi	360 000	385 000	25 000	6,90%
EKO dizel	325 000	348 000	23 000	7,10%
Motor moyi	510 000	546 000	36 000	7,10%

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, AI-80 va undan yuqori markadagi benzina nisbatan qo'llanilayotgan aksiz solig'i stavkasi qolgan AI-91 va undan yuqori benzin markalariga qaraganda 40 ming so'mdan 42 ming so'mgacha tonnasiga yuqoriligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi sifatida ushbu yoqilg'i turini yoqilg'i bozoridan chiqarib yuborish siyosati yotganligi bilan izohlanadi. Chunki ushbu yoqilg'i turi o'zining atrof muhitga etkazadigan zarar miqdori boshqalariga nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi.

2026-yil 1-apreldan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko'rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko'zlangan. O'zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar tarkibi keltirilgan 5-jadvalda keltildi.

Tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari yildan yilga oshganini ko'rishimiz mumkin. 2018-yilda bu ko'rsatkich 79 099,0 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda esa 201 863,7 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ushbu davrda bilvosita soliqlari bo'yicha ham tushumlar oshishish tendentsiyasi ega bo'lgan. Bilvosita soliqlar 2018-yilda 41 280,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilda 56 290,5 va 2022-yilda 71 390,2 mlrd. so'm bo'lgan.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2021-2024-yillarda Davlat byudjeti tushumlarida bilvosita soliqlar. mlrd.so'm

№	Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) — JAMI		132 938,10	164 799,40	201 863,70	231 721,40	274 424,00
1.	Bilvosita soliqlar	46 428,40	56 290,40	71 390,10	83 325,80	88 341,00
1.1.	Qo'shilgan qiymat solig'i	31 177,40	38 439,00	52 189,40	57 885,30	59 280,00
1.2.	Aksiz solig'i	11 697,30	13 086,50	13 455,00	15 834,40	19 060,00
1.3.	Bojxona boji	3 553,70	4 764,90	5 745,70	9 606,10	10 001,00
2.	Jami tushumlarda aksiz solig'i ulushi	8,80%	7,94%	6,67%	6,83%	6,95%
3.	Bilvosita soliqlar tushumida aksiz solig'i ulushi	25,19%	23,25%	18,85%	19,00%	21,58%

Ushbu davrda aksiz solig'i bo'yicha tushumlarni absolyut miqdori oshgan. Bu ko'rsatkich 2018-yilda 9 702,2 mlrd. so'm bo'lib, 2022-yilda 13 455,0 mlrd. so'mni tashkil etgan. Biroq, aksiz solig'ining davlat byudjetiga tushumidagi ulushi kamayish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2018-yilda 12,27 foizni, 2021-yilda 7,95 va 2022-yilda 6,67 foiz bo'lgan. Aksiz solig'ining bilvosita soliqlar tushumidagi ulushi ham pasaygan: 2018-yilda 23,50 foiz, 2021-yilda 23,25 foiz va 2022-yilda 18,85 foizni tashkil etgan. Daromadlar (maqsadli jamg'armalarsiz) - jami

2020–2024-yillarda izchil o'sish tendentsiyasini namoyon qilgan, 2020-yilda 132 938,1 mlrd. so'mdan 2024-yilda 274 424,0 mlrd. so'mga yoki o'tgan 5 yilda daromadlar hajmi qariyb 2,06 barobarga oshgan ($\approx 106\%$ o'sish). Bu holat iqtisodiy faollikning kengayishi, soliq bazasining mustahkamlanishi va ma'muriy islohotlar samarasi bilan izohlanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i byudjet daromadlarida asosiy manbalardan biri sifatida barqaror o'sgan. 2020-yilga nisbatan 2024-yilda 28 102,6 mlrd. so'mga o'sgan yoki 59 280,0 mlrd. so'mni (o'sish $+90\%$) tashkil etgan. QQS tushumlarining yuqori sur'atda o'sishiga ta'sir etgan asosiy omil sifatida iste'mol bozorining kengayishi, aylanmalarning legallasuvi va soliq ma'murchiligining raqamlashuvidir. Aksiz solig'i ulushi yillar kesimida o'zgaruvchan bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. 2020-yilda 25,19% bo'lgan holda 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 21,58%ga etgan. 2022-yilda keskin pasayish aksiz siyosati liberallasuvi yoki ayrim tovarlarga stavkalarining kamaytirilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2024-yilda ulushning qayta oshishi fiskal ahamiyatning tiklanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilishimiz mumkinki, aksiz solig'i - bu hukumat tomonidan ma'lum tovarlar (alkogol, tamaki, yoqilg'i, avtomobillar va insonlarning boshqa ikkilamchi ehtiyojlari) sotishdan olinadigan bilvosita soliq ekan. Aksiz solig'i odatda bir birlik uchun soliq bo'lib, sotib olingan tovarning hajmi yoki birligi uchun ma'lum miqdorni belgilaydi, aksiz solig'i odatda tor doiradagi tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Soliq stavkalarining bosqichma-bosqich o'zgarishi – inflyatsiya, bozor moslashuvi va ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilmoqda. Aksiz solig'i ulushi tartibga soluvchi va fiskal funktsiyalar o'rtasida muvozanat izlanayotganini anglatadi. 2026-yil aprelidan soliq stavkalari bir xil proportsiyada oshirilishi, bu soliq siyosatining tizimli ekanini ko'rsatadi. Bu esa davlat byudjeti daromadlarini oshirish va energiya resurslarini tejash maqsadlari ko'zlangan.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Campio Group (2025) 'В США вводится новый 1% налог на денежные переводы за границу.' Available at: <https://www.campiogroup.com/news/v-ssa-vvoditsya-novyy-1-nalog-na-denezhnye-perevody-za-granitsu/>

Juralov, N. (2024) 'Aksiz solig'i hisobi va tahlilining nazariy asoslari.' *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, mart, 270-277 betlar.

O'zbekiston Respublikasi kodeksi (2026) Soliq kodeksi.

O'zbekiston Respublikasi qonuni (2025) "Soliq va byudjet siyosatining 2026 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida", O'RQ-1108-son, 2025 yil 25 dekabr.

Боровко, Л.В. (2012) 'Формирование социально-ориентированной модели акцизного налогообложения и эффективность её развития.' *Проблемы экономики и юридической практики*, № 6, с. 71-75.

Бут-Гусаим, Д.А. и Тарарышкина, Л.И. (n.d.) 'Косвенные налоги как инструмент фискальной политики: опыт Кумая и ЕАЭС.' Available at: <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/333912/1/635-640.pdf>.

Семенова, Г.Н. (2023) 'Акцизное налогообложение в России и за рубежом.' *Вестник Государственного университета просвещения. Серия: Экономика*, № 4, с. 86-104. DOI: 10.18384/2949-5024-2023-4-86-104.

Тегетаева, О.Р. (2016) 'К проблемам реформы акцизного налогообложения.' *Налоговый менеджмент*, № 6, с. 23-27.